

25-Aprel, 2026-yil

KIBERXAVFSIZLIKNING DAVLAT SIYOSATIDAGI O‘RNI

Muyiddinov Bekali Bahodir o‘g‘li

Buxoro viloyati Osiyo xalqaro universiteti Tarix fani o‘qituvchisi

Xayritdinova Marjona Umidovna

Buxoro viloyati Osiyo xalqaro universiteti 1-bakalavr bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy ishda kiberxavfsizlikning davlat siyosatidagi o‘rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kiberxavfsizlikka xavf soluvchi omillar, axborot xavfsizlik darajasini oshirish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish orqali milliy xavfsizlikni ta‘minlash va davlatning barqaror rivojlanishiga erishish masalalari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *kiberxavfsizlik, kiberxavf, axborot xavfsizligi, siyosat, milliy xavfsizlik.*

Аннотация: *Данная научная работа анализирует роль и значение кибербезопасности в государственной политике. Исследование охватывает факторы, угрожающие кибербезопасности, создание механизмов повышения уровня информационной безопасности, обеспечение национальной безопасности и достижение устойчивого развития государства.*

Ключевые слова: *кибербезопасность, киберриск, информационная безопасность, политика, национальная безопасность.*

Annotation: *This scientific work analyzes the role and importance of cybersecurity in state policy. The study examines factors that pose threats to cybersecurity, as well as issues related to ensuring national security and achieving sustainable development through the implementation of mechanisms to enhance the level of information security.*

Key words: *cybersecurity, cyber threat, information security, policy, national security.*

Hozir raqamli texnologiyalar davrida yashayotgan ekanmiz, inson idrokiga asoslanib, jadal rivojlanayotgan axborot texnologiyalari davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, moliya tizimi hamda jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadigan ko‘plab sohalarni qamrab olmoqda. Shu sababli kiberxavfsizlikni ta‘minlash davlat siyosatining asosiy e‘tibor qaratadigan yo‘nalishlaridan biriga aylanib bo‘lgan. Axborot tizimlarini yuqori darajada himoya qilish va kiberxavflarning oldini olish

25-Aprel, 2026-yil

hamda bu sohada davlat siyosatini yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. Kiberxavf-xatar-bu internet va raqamli texnologiyalar orqali shaxs, jamiyat yoki davlatga zarar yetkazishga qaratilgan tahdidlar majmuidir¹.

Xavfsizlik siyosatining zaruriyati: Tashkilot bo‘ylab foydalanilayotgan qurilmalar soni ortib borishi tarmoqda uzilayotgan va saqlanadigan axborot hajmini ortishiga olib kelmoqda. Bu holat esa o‘z navbatida turli zaifliklar natijasida hosil bo‘lgan xavfsizlik tahdidlarini ortishiga ham sababchi bo‘ladi. Xavfsizlik siyosati tashkilotga ushbu tahdidlarga qarshi kurashish va unga axborotning yo‘qolishidan himoyalash imkonini beradi. Xavfsizlik siyosati tarmoqda qanday qoidalar foydalanishi kerakligini, konfidensial axborot qanday saqlanishi va tashkilot ma‘lumotlarini oshkor bo‘lishi va majburiyatlarni kamaytirish uchun qanday shifrlash algoritmlari kerakligini aniqlash orqali qonuniy himoyani ta‘minlaydi. Xavfsizlik siyosati tahdidlarning sodir bo‘lishidan oldin ularni bashoratlash va zaifliklarni aniqlash orqali xavfsizlik buzilishlari holatining ehtimolini kamaytiradi².

Kiberxavfsizlik - bu internetga ulangan tizimlarni (texnika, dasturiy ta‘minot va ma‘lumotlar) kiber tahdidlardan himoya qilish hisoblanadi³. Shu o‘rinda “kiberjinoyatchilik” tushunchasiga kelsak, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda, virtual tarmoqda dahshat solish, virus va boshqa zararli dasturlar, qonunga zid axborotlar tayyorlash va tarqatish, elektron xatlarni ommaviy tarqatish (spam), xakerlik hujumi, veb-saytlarga noqonuniy kirish, firibgarlik, ma‘lumotlar butunligi va mualliflik huquqini buzish, kredit kartochkalari raqami hamda bank rekvizitlarini o‘g‘irlash (fishing va farming) va boshqa turli huquqbuzarliklar bilan izohlanadi⁴. Kiberxavfsizlikni kuchaytirish choralari ko‘rgan holda, kiberxavf hamda hujumlarni kamaytirish maqsadida har bir davlat o‘ziga xos qonun ishlab chiqish bilan huquqbuzarliklarning oldini oladi. O‘zbekiston ham kiberxavfsizlik sohasida bir qator muhim qadamlar qo‘ymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida axborot xavfsizligini ta‘minlash to‘g‘risida”gi qarori milliy kiberxavfsizlik tizimini mustahkamlashga qaratilgan edi. Bundan tashqari, 2020-yilda O‘zbekiston Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi kiberxavfsizlik bo‘yicha milliy strategiyani ishlab chiqdi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda shaxsiy ma‘lumotlar xavfsizligini ta‘minlash maqsadida turli ilovalar va dasturlar, xususan, “e-imzo” tizimi joriy etilmoqda. Bu

¹ <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/22941>

² Kiberxavfsizlik asoslari. S.K.Ganiev, A.A.Ganiev, Z.T.Xudoyqulov

³ <https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=68028>

⁴ <https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=68028>

25-Aprel, 2026-yil

jarayon O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tishi uchun mustahkam poydevor yaratmoqda⁵. Shuningdek, mamlakatimiz rahbari kiberhujumlarning oldini olish maqsadida qator chora tadbirlarni ishlab chiqdi. Huquni muhofaza qilish organlarining kiberjinoyatlarni oldini olish, aniqlash va fosh etish bo'yicha ishlarini kuchaytirish rejalashtirilgan. Strategiyaga muvofiq, kiberhujumlarga chora ko'rish bilan shug'ullanuvchi tezkor guruhlarining tayyorgarlik darajasi doimiy ravishda oshirib borilishi kerak. Ichki ishlar vazirligi tuzilmasida tezkor faoliyatni axborot-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun kiberlaboratoriya tashkil etiladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarida raqamli kriminalistika rivojlantiriladi, jumladan, ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar tashkil etiladi, raqamli dalillarni yig'ish va tahlil qilish yo'lga qo'yiladi, shuningdek, tergov qilish uslublari va texnologiyalari ishlab chiqiladi hamda joriy etiladi⁶. Bundan tashqari, fuqarolarni kibermadaniyatga o'qitish ham yo'lga qo'yilishi kutilmoqda. Maktablarning yuqori sinflarida tarbiya soatlari doirasida kibermadaniyat bo'yicha mashg'ulotlar joriy etiladi. 2026-yil yakuniga qadar kiberxavfsizlik asoslari bo'yicha kurslar mavjud bo'lgan onlayn platformalarni ishlab chiqish, shuningdek, talabalar va maktab o'quvchilari uchun ijtimoiy roliklar tayyorlash rejalashtirilgan. Hududlarda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida kiberxavfsizlik klublari tashkil etiladi⁷.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har bir davlat o'z xalqi, iqtisodiy tizimi va ko'plab davlat hamda jamiyat hayoti uchun foydalaniladigan sohalarini har qanday kiberhujumlardan saqlashga harakat qiladi. Chunki kiberhujumlar to'g'ridan-to'g'ri inson shaxsiy ma'lumotlarini noqonuniy ravishda o'zlashtirish orqali, yokida qandaydir korxonaga yoki tashkilotlarning shaxsiy serveriga kirib ularga xavf tug'diruvchi hamda inqiroziga sabab bo'luvchi omildir. Davlatning vazifasi aynan shu va shunga o'xshash har qanday qonunbuzarlik va huquqbuzarliklarning oldini olib, jamiyatni farovon yashashiga imkoniyat yaratib berishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kiberxavfsizlik asoslari. S.K.Ganiev, A.A.Ganiev, Z.T.Xudoyqulov
2. <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/22941>
3. <https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=68028>
4. <https://infocom.uz/articles/kiberxavfsizlik-va-shaxsiy-malumotlarni-himoyalash>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2026/03/17/stategy/?ysclid=mn4tmf1jlo6301896>

⁵ <https://infocom.uz/articles/kiberxavfsizlik-va-shaxsiy-malumotlarni-himoyalash>

⁶ <https://www.gazeta.uz/oz/2026/03/17/stategy/?ysclid=mn4tmf1jlo6301896>

⁷ <https://www.gazeta.uz/oz/2026/03/17/stategy/?ysclid=mn4tmf1jlo6301896>